



INTELEKTUAL MULK SOHASIDA SUN'IY INTELEKTNING O'RN I TA'SIRI VA SALBIY JIHATLARI

Sun'iy intellektni juda qiyin va xavfsiz qilish kerak, chunki uning rivoji insoniyatning kelajagi haqida qaror qabul qilishimizga ta'sir qiladi.

Ilon Mask

Termiz Davlat Universiteti yuridik fakulteti

*2-kurs talabasi **Samadova Shohida***

Avliyaqulov Adham Alisherovich

*Termiz Davlat Universiteti yuridik fakulteti,, Davlat va huquq asoslari'' kafedra
si o'qituvchisi*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada sun'iy intellektning mualliflik huquqlariga bevosita ta'siri ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi. Qonunchilikdagi SI texnologiyalariga oid normalar va xalqaro tajriba muhokama qilinadi. Xalqaro miqyosda SI ning mulk va intellektual mulk obyektlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Bugungi kundagi mualliflik huquqlari himoyasi qay darajada muhim ekanligi yoritiladi. Shuningdek O'zbekiston SI uchun bir qator taklif loyihalari beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sun'iy intellekt, intellektual mulk, huquqiy himoya, ixtiro, huquqiy mexanizmlar, USECO, Afrika patent idorasi, SI ta'siri.*

Intellektual mulk huquqi bugungi kunda texnologik va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning asosiy omillarining bir qismi bo'lib, huquqiy sohaning har biriga



uzviy bog'liq bo'lmoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi intellektual mulkni yaratish va uni tijoratlashirishda yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan ixtirolar, dasturiy ta'minotlar va foydali modellar, sanoat namunalari boshqa intellektual mulk obyektlari an'anaviy huquqiy normalar bilan mos kelmaydi, bu Mualliflik huquqini himoya qilish palatasi raisi Boboqul Toshev aytganidek „Fuqarolarning intellektual mulki qonun bilan muhofaza etiladi“. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yaratilgan intellektual mulkning huquqiy asoslari bo'yicha qonunchiligimizda oqsoqliklar yuzga kelmoqda. Hozirda esa sun'iy intellekt bilan yaratilgan mulk obyektlari bo'yicha mualliflik huquqi kimga o'tishi, javobgarlik masalari, o'z sun'iy intellektdan foydalanib intellektual mulk yaratish mumkin yoki mumkin emasligi qonunchilikda muommolar o'z yechimini topmay kelmoqda.

Intellektual mulk o'zi nima? Uning obyektlarichi? Intellektual mulkning obyektlari O'zbekiston Respublikasi qonunlari asosida mustahkamlab qo'yilgan. Intellektual mulk obyektlariga intellektual faoliyat orqali erishilgan, fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovar, xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kirishi belgilab qo'yilgan.¹ Intellektual mulkning yaratilishi bevosita yaratgan shaxsga nisbatan mualliflik huquqini talab qiladi. Sun'iy intellekt ta'sir kuchi orqali ixtiro, yoxud biron intellektual mulk obyekti yaratilsa muallif sun'iy intellektmi yoxud shaxs?

Ushbu savolga yuzlanishdan oldin sun'iy intellekt nima ekanligi va u qanday vazifalarni amalga oshirishini bilib olishimiz darkor.

Sun'iy intellekt- unga joylangan ma'lumotlarni tahlil qilish, o'rganish orqali insonlarning yaratuvchanlik xususiyatiga taqlidni amalga oshiradi. Sun'iy intellekt tizimlari ma'lumotlarga asoslanib, o'z qarorlarini qabul qiladi, o'rganish, takomillashtirish va yangi bilimlar yaratishda insondan ajralib turadigan

¹ Lex.uz



xususiyatlarga ega. Ammo sun'iy intellekt yaratuvchanlik qobiliyatiga ega emas. Shu bilan birga undan foydalanish jarayonidagi foydasiz va yolg'on ma'lumotlarning berilishi kabi tomonlar ham mavjud. Sun'iy intellekt texnologiyalari intellektual mulk sohasidan bevosita o'rin egallamoqda, masalan, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va boshqa intellektual mulk obyektlarini yaratishda keng qo'llanilmoqda. Ammo sun'iy intellekt tizimlari yaratgan ixtirolarning kimga daxldor ekanligi, kelajakdagi nomuvofiqlik aniqlanganda o'rtada kim javobgar ekanligiga oid bir qator o'z savoliga javob topmagan muommolarni keltirib chiqaradi.

Suniy intellekt bilan bog'liq muommolar butun jahon davlatlarini yechim topishga majbur qilmoqda. Sababi bugungi vaqtga qadar mualliflik huquqiga ega bo'lgan sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tishga nisbatan harakati oshgan. Aynan shunday holat AQShda kuzatildi. Bunda AQSh Mualliflik huquqi byurosiga (USECO) 2023-yilda „Zarya of the dawn“ kompaniyasi tomonidan berilgan komikslar sabab bo'ldi.² Sababi bu komikslar sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan edi. Byuro esa intellektual mulk inson qo'li bilan yaratilishini lozim deb hisobladi. Yevropa qonunchiligida ham intellektual mulk insonning aql idroki asosida bo'lishi kerakligi keltirilgan. 2021-yilda YI Adliya vazirligi SI tomonidan yaratilgan asarni rad etgan. Lekin masalani boshqa tomoni esa sun'iy intellektidan foydalanishda ham sun'iy intellekt va inson omili ishroki bo'lsachi? Bunday holatda ixtirochi yaratilayotgan mulk obyektining turini, holatini, shaklini belgilab bersa unda mualliflik yaratuvchiga o'tadi. Lekin sun'iy intellektning yaratuviga aralashmagan vaziyatda u ochiq manba hisoblanadi.

Sun'iy intellektni yaratuvchi yoki muallif sifatida ko'rsatish masalasi, ayniqsa, an'anaviy qonunchilikda mualliflik huquqi va intellektual bo'yicha belgilangan

² <https://marifat.uz/show-post/suniy-intellekt-va-mualliflik-huquqi-qonunchilikni-takomillashtirish-yonalishlari-617>



normalar bilan qarama-qarshi keladi. Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlariga oid qonunchilik hali to'liq shakllanmagan. Biroq, dunyoning ayrim mamlakatlarida sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bog'liq intellektual mulkni himoya qilishni ta'minlash uchun yangi qonunlar va qoidalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, AQSh da sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan intellektual mulk huquqlari bo'yicha muammolarni hal qilishga qaratilgan maxsus qonunlar va huquqiy normativlar mavjud. Xalqaro intellektual mulkni himoya qilish tizimi WIPO (Intellektual Mulknii Himoya qilish Butunjahon Tashkiloti) va TRIPS (Intellektual Mulk Huquqlari bilan bog'liq Savdo jihatlari bo'yicha Bitim) singari tashkilotlar orqali masalalar ko'rib chiqilmoqda.³

Mualliflik huquqini aniqlashga oid holatlar turli davlatlarda turli tartibga solinadi. Xususan, 2021-yilda Afrika patent idorasi „DABUS“ni ya'ni sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan ixtironi patent ro'yxatidan o'tkazdi. Ammo bu holatga AQSH va Yevropa qarorni rad etdi. Yaponiyada esa, SI tomonidan yaratilgan har qanday intellektual mulk obyektlari SI ni yaratgan kompaniyaga tegishli bo'lishi aytilgan. Bundan ko'rishimiz mumkinki turli davlatlarda qonunchiligida bu masala turlicha yechimlarga erishilmoqda. 2023-yilda AQSH kongressida „SI mualliflik huquqi to'g'risida“ qonun muhokamasi bo'lib o'tdi. 2024-yilda Yevropa Ittifoqi „Sun'iy intellekt to'g'risida“ qonun loyihasi ishlab chiqildi va unga sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan kontentni tartibga solishga oid normalar belgilandi. Qonunga asosan, SI yaratgan kontentlar muallifi mavjud bo'lmasa ham qaysi ma'lumotlar asosida yaratilganligi ko'rsatilib o'tilishi kerak ekanligi belgilandi.

³ https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/trips_e.htm

<https://lex.uz/docs/-1022944>



O'zbekiston qonunchiligida ham intellektual mulk huquqini tartibga soluvchi

„Mualliflik va turdosh huquqlar“ to'g'risidagi qonun ⁴mavjud, lekin unda SI aloqador normalar belgilanmagan. Ammo „Elektron hisoblash mashinalari to'g'risida“ bir ikki band keltirilgan bo'lib bu butun nazoratni ta'minlab bera olmaydi afsuski. Lekin boshqa bir qonunchilik hujjatiga yuzlanishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan „Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2023-yilgacha rivojlantirish strategiyalari“ to'g'risida qaror mavjud bo'lib, ushbu qarorda aynan hozirgi muommolar yechim sifatida tartibga soluvchi qo'larning yaratilishi asos bo'lmoqda. Bu bilan aytishimiz mumkinki, 2030-yilgacha SI bilan bog'liq muommolarni yechishga qaratilgan normlar yaratiladi.

Bu vaziyatlardan kelib chiqib taklif beradigan bo'lsak, avvalo barcha muommolarni oldini olish uchun SI tartibga soluvchi qat'iy normalar belgilab qo'yish lozim. Bugungi kunda sun'iy intellekt ham vaqtni ham energiyani sarflashni oldini olib, bir necha ishchi kuchini ta'minlamoqda. Bugungi holat bilan rivojlanish bo'lsa kelajakda albatta insonlar o'rnini sun'iy intellekt egallashi tayin. Shuning uchun sun'iy intellekt faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjati ishlab chiqilishi lozim. Bu orqali insoniyatga nisbatan SI xavfi oldini olinishi mumkin. Ikkinchidan, xalqaro tajribadan foydalangan holda sun'iy intellektni tan olish lozim. Bu holatda sun'iy intellekt orqali yaratilgan intellektual mulk obyektlari bevosita yaratuvchiga tegishli bo'lsin. Shunda shaxsiy nomulkiy huquqlar SIga, mulkiy huquqlar shartnoma tuzish va undagi majburiyatlar bevosita u orqali intellektual mulk yaratuvchisiga tegishli bo'lsin. Sun'iy intellektning intellektual mulk huquqi sohasidagi o'rni ortib bormoqda. Ushbu texnologiyalar intellektual mulk yaratish, uni tijoratlashtirish va himoya qilish jarayonlarini yangilaydi va takomillashtiradi. Biroq, bu jarayonlar bilan bog'liq huquqiy muammolarni hal

⁴ <https://lex.uz/docs/-1022944>



qilish uchun yangi qonunchilik va mexanizmlar zarur. Sun'iy intellekt texnologiyalarining intellektual mulk huquqidagi o'rnini belgilash va uni to'g'ri boshqarish mamlakatning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Foydalanilgan internet adabiyotlar:

- 1.https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/trips_e.htm
- 2.<https://www.wipo.int/portal/en/index.html>
- 3.https://www.wipo.int/about-ip/en/artificial_intelligence/conversation.html
- 4.<https://www.gatesnotes.com/meet-bill/tech->
- 5.<https://legalclinic.uz/tpost/g6iy20crb1-mualliflik-huquqi-va-suniy-intellekt>
- 6.<https://lex.uz/docs/-1022944>